



XUSUSIY SEKTORDAGI TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA BERILAYOTGAN IMKONIYATLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

PhD, dots. **Inobatov Abror**
Renessans ta'lim universiteti
ORCID: 0000-0003-0288-8798

Annotatsiya. Bozor iqtisodiyoti erkin tadbirkorlikka, sohibkorlikka asoslangan iqtisodiyotdir. Shuning uchun ham xususiy sektorda tadbirkorlik faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi uchun iqtisodiyotda tadbirkorlik muhitini yaxshilashga hamda shu orqali iqtisodiyot tarmoqlarini yanada daromadligini oshirish, aholini ish bilan bandligini yaxshilash, farovonligini yuksaltirishga erishishdir. Bunday ustuvor natijalarga erishishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar xususiy sektorda tadbirkorlikning rivojlanishiga hamda shu asosda, iqtisodiy o'sishga va milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgandir.

Kalit so'zlar: xususiy sektorda tadbirkorlik, iqtisodiy o'sish, erkin tadbirkorlik, mulkchilik shakllari, qo'shilgan qiymat nazariyasi, tadbirkorlik ko'rinishlari, iqtisodiy kategoriya, muntazamlik belgisi.

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ, ПРЕДОСТАВЛЯЕМЫХ ДЛЯ БИЗНЕС-ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ЧАСТНОМ СЕКТОРЕ

к.э.н., доц. **Инобатов Аброр**
Образовательной университет "Ренессанс"

Аннотация. Рыночная экономика – это экономика, основанная на свободном предпринимательстве и предпринимательстве. Поэтому для формирования и развития предпринимательства в частном секторе необходимо улучшение деловой среды в экономике и тем самым повышение рентабельности отраслей экономики, увеличение занятости населения, улучшение его благосостояния. Для достижения столь приоритетных результатов реализуемые в нашей стране экономические реформы направлены на развитие предпринимательства в частном секторе и на этой основе экономический рост и обеспечение стабильного развития национальной экономики.

Ключевые слова: предпринимательство в частном секторе, экономический рост, свободное предпринимательство, формы собственности, теория добавленной стоимости, формы предпринимательства, экономическая категория, признак закономерности.

EFFECTIVE USAGE OF THE OPPORTUNITIES PROVIDED FOR BUSINESS ACTIVITIES IN THE PRIVATE SECTOR

PhD, assoc. prof. **Inobatov Abror**
Renaissance Educational University

Annotation. *The market economy is an economy based on free enterprise and entrepreneurship. Therefore, for the formation and development of entrepreneurship in the private sector, it is necessary to improve the business environment in the economy and thereby increase the profitability of economic sectors, increase the employment of the population, and improve their well-being. In order to achieve such priority results, the economic reforms implemented in our country are aimed at the development of entrepreneurship in the private sector and, on this basis, economic growth and ensuring the stable development of the national economy.*

Key words: *entrepreneurship in the private sector, economic growth, free entrepreneurship, forms of ownership, theory of added value, forms of entrepreneurship, an economic category, a sign of regularity.*

Kirish.

Mamlakatni modernizatsiyalash va texnik hamda tehnologik qayta qurish jarayonlari kechayotgan milliy iqtisodiyotimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida real mulkdorlar sinfini shakllantirish, xususiy sektorda tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish, aholini orasida kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush. darajasini oshirish borasida amalga oshirilgan chora- tadbirlardan kelib chiqqan holda tadbirkorlik faoliyatini yaratish orqali aholining umumiy bandligini hamda turmush farovonligini oshirish o'z yechimini kutayotgan eng dolzarb muammolardan biridir. Bu bizga, iqtisodiy nazariyadan ma'lumki, kapital, ishchi kuchi, resurs va tadbirkorlik qobiliyati ishlab chiqarish omillaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, xususiy sektordagi tadbirkorlik faoliyatida qanchalik ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmi ohsa bu ishchi kuchiga bo'lgan talabning oshishiga va mamlakatda yalpi daromadning hamda aholi jon boshiga daromadning oshishiga sabab bo'ladi.

O'zbekistonning barqaror rivojlanish maqsadlarini kelgusida maqsadli moliyalashtirish, xususiy sektor va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, demografik rivojlanish bilan bog'liq milliy xususiyatlarni moslashtirish, ayollar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash siyosatini kuchaytirish, gender tengligi bo'yicha ma'lum salohiyat va imkoniyatlarni ochib beradi. «2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»ning rivojlanish maqsad va vazifalari bilan mutanosibli va o'zaro bog'liqligi muhim o'rin kasb etadi (Farmon, 2022). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so'zlagan nutqida ta'kidlanganidek, "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun barcha sharoitlarni yaratish – eng muhim vazifamizdir".⁸

Adabiyotlar sharhi.

Xususiy sektordagi tadbirkorlik faoliyatini yuritishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining nazariy jihatlari va uning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini yoritishda alohida ahamiyatga ega bo'lgan iqtisodchi olimlar:

Simonenko (1996) tadbirkorlik deganda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish va uning asosida daromad olish uchun o'zining yoki qarz mablag'lari evaziga firma tuzishni tushunadi.

⁸ <https://lex.uz/docs/5947775>

Tixomirov (1996) esa bu foydani chiqarib olish xo'jalik faoliyatining maqsadi ekanligini ta'kidlaydi. Ba'zi mualliflar ushbu faoliyatni muntazamligidan qat'iy nazar foyda olish faoliyati sifatida ko'radilar.

Talan (2002) tadbirkorlikni quyidagicha ta'riflaydi: "...foydani maksimalashtirishga qaratilgan faoliyat. Uning mazmuni tovarlarni sotish orqali uni ehtiyojlarini qondirishda mujassamlashgandir. Bunda tadbirkor o'zi savdoni tashkil etadimi yoki vositachi sifatida namoyon bo'ladimi ahamiyati yo'qdir" "Tadbirkorlik" va "biznes" tushunchalarini farqlab muallif ikkalasi "...bir xil narsa emas. Biznes ancha keng mazmunga ega" deydi. Biznes deganda daromad yoki boshqa shaxsiy manfaatlar keltiruvchi har qanday iqtisodiy faoliyat tushuniladi. Biznesda faqatgina tadbirkorlar emas, balki boshqalar ham, masalan, menejerlar, ekspertlar va boshqalar ishtirok etishadi.

Braginskiy (1998) quyidagini ta'kidlaydi: "Shu bilan birga tadbirkor shartnomada ishtirok etadi, lekin bu ishtirok uning tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq emas, tadbirkorlik faoliyatining hech qanday xususiyatiga ega emas.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy abstraktsiya, tahlil va sintez, ilmiy va umumiy tahlil, qiyoslash, o'zaro solishtirma tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Respublikamizda iqtisodiy o'sish tarkibiy islohotlarni izchil davom ettirilishi, shuningdek, fiskal va monetar siyosatning o'zaro muvozanatli yuritilishi orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlanishi hisobiga erishilmoqda.

Prognozlarga ko'ra 2023-2024 yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti 5,6-5,8 foiz doirasida, 2025-2026 yillarda mos ravishda 6,2 va 6,4 foizgacha o'sishi kutilmoqda. Bunda, 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotni 4 ming AQSh dollarga yetkazish bo'yicha belgilangan maqsadidan kelib chiqib prognoz qilingan. Buning uchun keyingi yillarda dunyoda kuzatilayotgan iqtisodiy va siyosiy noaniqliklar qaramasdan O'zbekistonning barqaror o'sishini ta'minlash maqsadida (Qaror, 2020):


- inson kapitalini rivojlantirish;
- energiya resurslari bozorini isloh qilish;
- korxonalarini xususiyashtirish va transformatsiya qilishni jadallashtirish;
- tabiiy resurslardan, xususan suv resurslaridan oqilona foydalanish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda davlat-xususiy sherikligi asosidagi loyihalaridan foydalanishni kengaytirish choralari ko'zda tutilmoqda.

Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasida Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, shuningdek, inklyuziv va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish orqali kambag'allikni ikki barobarga qisqartirish, iqtisodiyotda raqobatni ta'minlash, tadbirkorlik sub'ektlariga teng sharoitlar yaratish xususiy sektorning rolini oshirish, barcha tarmoq va sohalarda xususiy sektorning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali xususiy investorlarni jalb qilgan holda ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish.

Xususiy sektorda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq natijalar quyidagilardan iborat:


- tadbirkorlik sohasida talab qilinadigan 114 turdagi litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi va ularning 33 turi o'rniga xabar berish tartibi joriy etildi;
- tadbirkorlik subektlarini rasmiy ro'yxatdan o'tkazish va ruxsat berish tartib-tamoyillari ikki baravarga qisqartirildi;
- nazorat va tekshiruvlarning barcha turlari (ro'yxatda ko'rsatilganlardan tashqari) bekor qilindi.

- soliqlar soni 13 tadan 9 tagacha qisqartirildi, qo'shilgan qiymat solig'i, ijtimoiy soliq stavkalari pasaytirildi;
- yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi va oilaviy tadbirkorlar uchun yuridik shaxs tashkil etmasdan mikrokreditlar ajratish mexanizmi yaratildi;
- maxsus moliyaviy yordam davlat jamg'armasi tashkil etildi; (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda xususiy tadbirkorlar sonining o'zgarish dinamikasi⁹

Xususiy sektorda tadbirkorlik subyektlarining Qonunchilik va huquqiy manfaatlarini himoya qilish mustaqil instituti tashkil etilib, 5 yillik qisqa davr ya'ni 2019–2023 yillar mobaynida faol tadbirkorlar soni 371,8 mingdan 477,7 minggacha yoki 1,2 baravarga ko'paydi. Davlat tomonidan faol qo'llab-quvvatlash 2023 yilda kichik va xususiy biznesning YAIMdagi ulushini 48,6% ga, qurilishdagi ulushini 77,1% ga, bandlikdagi ulushini esa 76,4% ga oshirish imkonini berdi. Xususiy biznes mamlakat barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim manbaiga aylanmoqda.



2-rasm. 2023 yilda xususiy sektirda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi


⁹ Manba: stat.uz malumotlari asosida tuzilgan.

Xususiy sektor bilan bir qatorda fuqarolik jamiyati subektlarini shakllantirish va kengaytirishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Siyosiy o'zgarishlarga muvofiq fuqarolik jamiyati institutlari qo'llab-quvvatlandi, shuningdek jamoatchilik nazorati mexanizmlari kengaytirildi.

Xususiy sektorda tadbirkorlik o'zining ichamligi va yashirin bozor talabini tezda o'rganishi, harakatchanligi tufayli kam mablag' sarflab mahalliy ehtiyojni qondirish uchun turli zarur mahsulotlar ishlab chiqaradi va uni bozorga taklif qila oladi. Uning yana bir muhim ijobiy tomoni ishlab chiqarishda asosan mahalliy resurslardan foydalanadi, bu esa mahsulot tannarhining birmuncha arzon bo'lishini ta'minlaydi.

Darhaqiqat, muttasil o'zgarib turadigan bozor konyukturasi sharoitida xo'jalik faoliyatida aniq yo'nalishlarni tanlash muammosi vujudga keladi. Shuning uchun ham, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay tadbirkorlik muhitini yaratilishi, takomillashtirilishi yuqorida ko'zda tutilgan maqsadlarga erishishga ko'maklashadi. Bu esa xozirgi paytda eng zarur va dolzarb masala bo'lib turmoqda.

Xususiy sektorda tadbirkorlik faoliyatini ko'lamining kengayishiga, uning milliy iqtisodiyotdagi o'rnining yuksalishiga samarali ta'sir o'tkazib kelmoqda, lekin eski totolitar tuzumdan qolgan holat va qarashlar kichik biznes rivojiga salbiy ta'sir qilmoqda. Shuning uchun, kichik biznesning rivoji bozor va nobozor munosabatlar ta'siriga uchramoqda. Sir emaski, hozirgi kunda kichik biznes legal va nolegal ravishda mavjud bo'lib, bunday holatga bozor qonunlari va iqtisodiyot qoidalariga zid bo'lgan qarorlarning qabul qilinishi o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bu ta'sir kichik biznesning iqtisodiy mazmunini ifodalashda uning umumiqtisodiy va xususiy jihatlarini izohlashni talab etadi. Demak, kichik biznesning iqtisodiy mazmunini izohlashda ikkita yondashuv mavjudligini e'tirof etish mumkin. Bizningcha, kichik biznesning umumiqtisodiy jihatini – bu ma'lum subyektning uning ehtiyorida bo'lgan ishlab chiqarish omillari va kapitalning daromad topish va foyda ko'rish manfaatini qondirishga qaratilgan iqtisodiy faoliyati bo'lsa, kichik biznesning xususiy jihatini mavjud shart-sharoitlar ta'sirida yashirin iqtisodiy munosabatlarning kengayishiga, ya'ni ma'muriy to'siqlarga qarshi qaratilgan xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi. Bizningcha, kichik biznesning iqtisodiy mazmunini bozor munosabatlarining rivojlanganlik darajasiga va davlatning iqtisodiy siyosatiga nisbatan talqin etish zarur. Bu orqali kichik biznesning mazmun-mohiyatini real iqtisodiy vaziyatga nisbatan izohlash imkoniyatini vujudga keladi.



3-rasm. Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarining o'sish sur'ati¹⁰

¹⁰Manba:stat.uz malumotlari asosida tuzilgan.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan hamma mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyati bilan biznesni rivojlantirishning zarur sharti xususiy mulkchilikdir, lekin tadbirkor bilan biznesmen hamisha ham xususiy mulk egasi bo'lavermaydi. Tadbirkorlar bilan biznesmenlar orasida mulk egalari bilan bir qatorda menejerlar, ishlab chiqarish tashkilotchilari va ishga astoydil berilgan boshqa har qanday kishilar ham bor.

Tadbirkorlikning rivojlanishi, o'z navbatida, bir qator sharoitlarning mavjud bo'lishini taqozo etadi, Ular asosida umuman tovar ishlab chiqarishning umumiy ijtimoiy -iqtisodiy shart-sharoitlari yotadi.

Birinchidan, tadbirkor xo'jalik yuritishda uning subyektlarida xo'jalik yuritishning u yoki bu to'rini tanlash bo'yicha, ishlab chiqarish dasturini shakllantirishi, moslashtirish, manbalarni tanlash, resurs topish, mahsulot sotish, ularga baho belgilash, foydani tasarruf qilish va shu kabilar bo'yicha ma'lum xuquq va erkinliklar mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Ikkinchidan, tadbirkor ishlab chiqarish vositalariga, ishlab chiqa-rilgan mahsulot va olingan daromadga mulkchilik xuquqiga ega bo'lishi kerak. Tadbirkorlik faoliyati mulkdorning o'zi tomonidan ham, uning mol-mulki asosida ish yurituvchi subyekt tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

Xo'jalik yuritish xuquqi, ya'ni mol-mulkidan foydalanish va daromadni tasarruf qilish tadbirkor tomonidan takror ishlab chiqarish jarayonini boshqarishining muhim shart-sharoitini tashkil qiladi.

Uchinchidan, xo'jalik yuritish yo'lini erkin tanlash, daromadni investitsiyalash imkoniyati va shu kabilarni real ta'minlaydigan ma'lum iqtisodiy muhit va ijtimoiy siyosiy sharoit yaratishi zarur.

To'rtinchidan, erkin tadbirkorlik, mulkchilik va o'zlashtirishning turli-tuman shakllari va turlarini taqozo qiladi. o'z navbatida turli-tumanlilikning o'zi obhektiv xodisa bo'lib, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi oqibati sifatida maydonga chiqadi.

Yetarli moliyaviy manbalarga, yaxshi ma'lumot va malakali tayyorgarlikka ega bo'lish, umumiy tijorat qonunchiligi, soliq bo'yicha imtiyozlar, tadbirkorlik muhiti va uni rivojlantirishda jamiyat manfaatdorligining mavjud bo'lishi tadbirkorlikni rivojlantirishning navbatdagi shart-sharoitlari hisoblanadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan barcha shart-sharoitlar mavjud bo'lgan davlatlarda tadbirkorlik yaxshi rivojlanadi, aks holda faoliyatning bu turi xufyona iqtisodiyot sohasiga o'tib ketadi.

Ishbilarmonlarning huquq va majburiyatlari, ularning jamiyat va respublika oldidagi hamda yollangan ishlovchilar va xo'jalikdagi sheriklari oldidagi huquq va majburiyatlariga uzviy bog'liqdir.

Xulosa va takliflar.

Xususiy sektorda tadbirkorlikni o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lib, ular bozordagi talabga tez moslasha borishi, sifatli mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati; nisbatan qisqa muddatlarda aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni qondira olishi; dastlabki sarmoya hajmining nisbatan kamligi; tez orada yangi ishchi o'rinlari barpo etish va bandlik muammosini hal etishga ko'maklashish imkoniyati; biznes egasining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdagi bevosita ishtiroki va boshqalarni kiritish mumkin.

Bizningcha, kichik tadbirkorlik iqtisodiy mazmunini bozor munosabatlarining rivojlanganlik darajasiga va davlatning iqtisodiy siyosatiga nisbatan talqin etish zarur. Bu orqali kichik biznesning mazmun-mohiyatini real iqtisodiy vaziyatga nisbatan izohlash imkoniyatini vujudga keladi.

Xususiy sektorda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali iqtisodiy ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- ishlab chiqarish turlarini rivojlantiradi;
- ixcham va murakkab bo'lmagan yangi texnika-texnologiyalarning kengayishiga olib keladi;

- yirik ishlab chiqarish bilan mayda ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqani ko'chaytiradi;
- aholining ish bilan bandligini oshiradi;
- moliyaviy resurslarning ko'payishiga ko'maklashadi;
- soliq tushumlarini oshiradi;
- milliy valyutaning harid qobiliyatini mustahkamlaydi;
- aholi daromadlarini oshiradi.

Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha muammolar quyidagilardan iborat:

Xususiy sektordagi tadbirkorlikka ko'maklashuvchi bozor infratuzilmalari tashkilotlarining yetishmasligi yoki yuqori saviyada xizmat ko'rsatamayotganligi.

2023-2026 yillarda aholi bandligini ta'minlash, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirish hududiy dasturlarida belgilangan asosiy vazifalarni bajarishda maxalliy xokimiyat organlarining xususiy sektordagi tadbirkorlarni kichik biznes vakillari bilan o'zaro hamkorlikdagi aloqalari va muammolarini birgalikda hal etish imkoniyatlari yo'lga qo'yilmoqda.

Xususiy sektorda tadbirkorlik subyektlarini ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishlari uchun bino, yer ajratish, gaz va elektroenergiya ta'minotidagi uzilishlar (kommunikatsiyalar) va hokazolarda barham berish.

Xususiy sektorda tadbirkor aholining asosiy ish o'rni va daromadlarining o'sish manbaiga aylanishi, shuningdek mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning poydevori sifatida kichik va o'rta mulk egalari sinfining vujudga kelishi uchun shart-sharoitlar yaratib berishi lozim. *Xususiy sektorda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning ahamiyati asosan quyidagi beshta ustuvorlikni ta'minlashga xizmat qiladi:*

- xususiy sektorda tadbirkor ish bilan bandlik masalasini yumashatadi va individual imkoniyatlar doirasida ish o'rinlarining yaratilishiga olib keladi;
- bozor qoidalariga mos ravishda daromad topish uchun shart-sharoit hozirlaydi;
- pul topishga bo'lgan qiziqishni ko'chaytirib, tovar ishlab chiqarishning ko'payishiga olib keladi;
- o'rta mulkdorlar va o'rta hol aholi qatlamini tashkil topishda xususiy sektordagi tadbirkorlarga berilaytgan bank va soliqlardagi imtiyozlar;
- aholi turmush farovonligini oshirishning moddiy asosini yaratilishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/ Jumepamypa/ Reference:

Braginskiy M.I. (1998) Dogovori s predprinimatel'nyami po grajdanskomu kodeksu// Pravo i ekonomika.

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni. - <https://lex.uz/docs/5841063>.

O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. www.stat.uz.

Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020- 2030 yillarga mo'ljallagan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4575-sonli qarori.

Simonenko V.D. (1996) Osnovi predprinimatel'stva. Bryansk.

Talan M.V. (2002) Prestupleniya v sfere ekonomicheskoy deyatelnosti: voprosi teorii, zakonodatelnogo regulirovaniya I sudebnoy praktiki: Dis....d.yu.n. Kazan.

Tixomirov Yu.A. (1996) Predprinimatel I zakon: Prakticheskoye posobiye. –M.,